

NUTQNING PSIXOFIZIOLOGIK MEXANIZMLARINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI**Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich**

Oriental universiteti dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq buzilishlari etiologiyasining nazariy asoslari, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda nutq kamchiliklarini keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi.

Shuningdek, XIX–XX asr olimlarining ilmiy qarashlari, xususan, Pol Broka va Vernike tomonidan nutq markazlari haqidagi kashfiyotlar, hamda S.M.Dobrogayev va M.Y.Xvatsevlarning nutq buzilishlari etiologiyasi bo'yicha tasniflari tahlil etilgan. Nutq buzilishlarining organik, funksional, psixonevrologik hamda ijtimoiy-psixologik sabablari yoritilib, ularning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: etiologiya, periferik, markaziy, organik, funksional, nerv faoliyati, bosh miya, nutq, sabab, anatomiya, fiziologiya.

Abstract: This article examines the theoretical foundations of the etiology of speech disorders, the stages of its historical development, and the internal and external factors that cause speech impairments.

It also analyzes the scientific views of nineteenth- and twentieth-century scholars, particularly the discoveries of Paul Broca and Carl Wernicke regarding the speech centers of the brain, as well as the classifications of the causes of speech disorders proposed by S. M. Dobrogayev and M. E. Khvatsev. Organic, functional, psychoneurological, and socio-psychological causes of speech disorders are described, and their interrelations are highlighted.

Keywords: etiology, peripheral, central, organic, functional, nervous activity, brain, speech, cause, anatomy, physiology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы этиологии речевых нарушений, этапы её исторического развития, а также внутренние и внешние факторы, вызывающие речевые дефекты.

Также анализируются научные взгляды учёных XIX–XX веков, в частности открытия Поля Брока и Карла Вернике о речевых центрах головного мозга, а также классификации причин речевых нарушений, предложенные С.М.Доброгаевым и М.Е.Хватцевым. Освещаются органические, функциональные, психоневрологические и социально-психологические причины речевых нарушений, а также показана их взаимосвязь.

Ключевые слова: этиология, периферический, центральный, органический, функциональный, нервная деятельность, головной мозг, речь, причина, анатомия, физиология.

KIRISH

«Etiologiya» termini grekcha soʻzdan olingan boʻlib, (etio-sabab, logos-fan, oʻrganish) sabablarni oʻrganuvchi fan maʼnosini bildiradi. Sababiyat muammosi qadim qadimdan insoniyat eʼtiborini oʻziga qaratib kelgan. Sabablar haqidagi fan sifatida etiologiyaning rivojlanishi tibbiy va tabiiy fanlar qatorida umumiy ilmiy taraqqiyot bilan uzviy bogʻliqdir. Bundan tashqari «etiologiya» tushunchasining oʻzi falsafiy kategoriyalardan biri boʻlib hisoblangani sababli, falsafaning rivojlanishiga uning ham aloqasi bordir.

Nutq buzilishlari etiologiyasi muammosi kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar haqidagi umumiy taʼlimotlar singari uzoq tarixiy rivojlanish yoʻlini bosib oʻtdi.

Qadimgi grek faylasufi va shifokori Gippokrat (er.av. 460-377 y.) bir qator nutq buzilishlarining sababini koʻrsatib oʻtgan.

Boshqa grek faylasufi Aristotel (er.av. 384-322 y.) nutq hosil boʻlish jarayonini periferik nutq apparatining anatomik tuzilishi bilan bogʻlab, anatomik tuzilishdagi kamchiliklarni nutq buzilishiga sabab qilib koʻrsatgan.

Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, antik davr olimlarining tadqiqotlaridayoq nutq buzilishlari sabablarini tushunishda ikki yoʻnalish koʻrsatilgan. **Birinchi** yoʻnalish Gippokrat nuqtai nazar boʻlib, bosh miyaning jarohatlanishi nutq buzilishlarini kelib chiqishiga sabab boʻluvchi bosh omil ekanligi taʼkidlangan. **Ikkinchisi** Aristotelga tegishli boʻlib, periferik nutq apparatining buzilishlari aynan nutq buzilishlarining sababi etib koʻrsatilgan. Nutq buzilishlari sababini oʻrganishning keyingi davrlarida ham bu ikki nutqai nazar saqlanib qolgan.

Nutq buzilishlari etiologiyasi haqidagi tasavvurlar, shu muammoni oʻrganishning barcha davrlarida, ular mohiyatini tushunishni ifodalaydi. Shuningdek, maʼlum davr va mualliflarning umumiy metodologik yoʻnalishini ifodalaydi.

Nutq buzilishlari etiologiyasida bosh miya jarohatlanishining «oʻz oʻrni» borligi eramizdan avvalgi 400 ming yil ilgari Gippokrat tomonidan aytib oʻtilgan boʻlsa ham, bunga haqiqiy ilmiy tasdiq 1861 yilda, fransuz shifokori Pol Broko tomonidan bosh miyada nutq markazi mavjudligi va bu markaz jarohatlanishi nutq buzilishini keltirib chiqarishi mumkinligi koʻrsatib berilgandan soʻnggina berilgandir.

Xuddi shunga oʻxshash kashfiyot 1874 yilda Vernike tomonidan ham amalga oshirilgan: nutqni tushunishda bosh miya qobigʻining orqa boʻlagi katta rol oʻynaydi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni roʻy beradi.

MUHOKAMA VA TAVSIYALAR

Nutq buzilishlari etiologiyasi masalasi XX asrning 20 yillaridan jadal ishlana boshlandi. Bu yillarda tadqiqotchilar ilk bor, kelib chiqish sabablariga qarab nutq buzilishlarini tasniflashga urindilar. S.M.Dobrogayev (1922) nutq buzilishlari sabablari orasida quyidagilarni ajratib koʻrsatgan:

1. Oliy nerv faoliyati kasalliklari.
2. Anatomik nutq apparatida patologik oʻzgarishlar.
3. Bolalikdan tarbiyaning yetishmaganligi.

4. Organizmning umumiy nevropatik holati.

M.E.Xvatsev ilk bor nutq buzilishlari sabablarini ichki va tashqi omillarga ajratdi. Shu bilan birga u organik (anatomo-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik va psixo-nevrologik sabablarni ajratib ko'rsatdi.

Organik sabablarga homiladorlik davrida, tug'ruq paytida va tug'ruqdan so'ng bosh miyaning yaxshi rivojlanmasligi va jarohatlanishi, shuningdek nutq periferik organlaridagi turli xil organik buzilishlar kiritilgan. Organik buzilishlar markaziy (miyaning jarohatlanishi) va periferik sabablarga (eshituv organi jarohatlanishi, tanglay yoriqligi va artikulyatsion apparatning boshqa morfologik o'zgarishlari) ajratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Funksional sabablarni M.Y.Xvatsev, I.P.Pavlovning ta'limoti orqali tushuntiradi. Bu ta'limot markaziy nerv tizimida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabatini buzilishi haqida bo'lib, M.Y.Xvatsev bu orqali organik va funksional, markaziy va periferik sabablarning o'zaro munosabati mavjudligini ta'kidlaydi.

Psixonevrologik sabablarga u aqli zaiflikni, xotira, diqqat buzilishini va boshqa psixik jarayonlar buzilishini kiritgan.

M.Y.Xvatsev ijtimoiy-psixologik sabablarga ham katta e'tiborni qaratgan va buning ostida atrof muhitdagi turli xil yomon ta'sirlar yotganini tushuntiradi.

Biologiya, embriologiya, nazariy tibbiyot sohalarida so'nggi 10 yillikda qo'lga kiritilgan katta yutuqlar, tibbiy genetika, immunologiya va boshqa fanlarning erishgan yutuqlari nutq buzilishlari etiologiyasi haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'lish imkonini berdi va ularning kelib chiqishida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) zararlarining ahamiyatini ko'rsatdi. Nutq buzilishlarining faqat organik (markaziy va periferik) sabablarini ajratmasdan, balki funksional sabablarni ham ajratish, nutq buzilishi mexanizmini bola organizmiga ko'rsatadigan ta'sirini tushunish ham kerak. Bu nutq buzilishlarini korreksiyalash uchun to'g'ri yo'l va metodlar tanlash, ularni oldindan aytib berish va oldini olish uchun ham muhimdir.

Nutq buzilishlari sababi deganda – organizmga tashqi yoki ichki zararli omilning ta'sir etishi yoki ularning o'zaro aloqasini tushunish mumkin, qaysiki bu, nutq buzilishi xususiyatini aniqlaydi.

Etiologiyada tashqi va ichki omillarning roli masalasi umumiy sababiyat muammosining bir bo'limi hisoblanadi. Nutq kamchiligining kelib chiqishi va uning klinik ko'rinishini shakllanishida bu ikki omil orasida bevosita, o'zaro aloqadorlik o'rnatilgan.

Nutq buzilishlarining kelib chiqishida maxsus sharoitlar katta rol o'ynaydi, ya'ni nutq kamchiliklarini kelib chiqishiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillar. Masalan, psixik travma ta'siri ostida bolada duduqlanish yuzaga kelsa, u tashqi sabab sifatida ko'riladi. Quyidagilar esa duduqlanishning kelib chiqishi uchun qulay sharoit bo'lib xizmat qiladi: bolaning somatik zaifligi, uning nevropatik organizmi (nerv-psixik qo'zg'aluvchanlikning oshganligi), markaziy nerv tizimining erta organik jarohatlanishi asorati va h.k.

Evolusion-dinamik yondoshuv va psixikaning shakllanishi jarayonida biologik va ijtimoiy dialektik birlik tamoyili, nutq buzilish etiologiyasini o'rganish uchun asos bo'ladi. Bu aspektida bola nutqiy faoliyatining rivojlanishi uning markaziy nerv tizimining yetuklik darajasiga qarab belgilanadi va ma'lum darajada bolaning tashqi olam bilan o'zaro munosabati xususiyatlariga ham bog'liqdir.

L.S.Vgotskiy ishlab chiqqan psixik rivojlanishining konsepsiyasi, bolalik davrida nutq rivojlanishi buzilishining sababini o'rganishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Psixika rivojlanishining atrof muhit ta'siri bilan bog'liqligini tushuntira turib, u «rivojlanishning ijtimoiy vaziyati» tushunchasini kiritdi. Bu o'z navbatida rivojlanishning ichki jarayonlari va tashqi sharoitlarni o'zida namoyon etadi.

Funksional nutqiy tizimning yetilishi asosida afferentatsiya yotadi, ya'ni turli analizatorlar orqali tashqi olamdan signal olish. Birinchi navbatda eshituv analizatori turli xil signallarni va eng avvalo nutqiy signallarni qabul qiladi. Eshituv afferentatsiyasining manbasi bo'lib, bola bilan muloqot qiluvchi katta odam hisoblanadi. Shunga bog'liq ravishda nutqiy muhit va nutqiy muloqotning roli juda kattadir va ularning yetishmovchiligi nutq shakllanishini buzuvchi asosiy sabablardan biri bo'lishi mumkin.

XULOSA

Demak, nutq kamchiligiga ega kishilar orasida yoki nutqiy chegaralangan muhitda tarbiyalanuvchi ilk yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishidan orqada qoladi (kar-soqov ota-onalar yoki yaqqol nutq kamchiligiga ega ota-onalar, uzoq muddat kasalxonada yotish, turli xil og'ir kasalliklar tufayli ijtimoiy kontaktga kirishishning chegaralanganligi).

Bola nutqining normal rivojlanishi uchun muloqot ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi, ijobiy-emotsional tusda kechishi kerak. Unga tovushlarni shundaygina eshitish kamlik qiladi (radiomagnitafon, televizor). Dastlab ma'lum yosh davri uchun xarakterli asosda kattalar bilan muloqot qilish lozim. Bolani kattalar bilan muloqoti shaklining o'zgarishi nutq rivojlanishiga turtki bo'ladi. Demak, hayotining birinchi yili uchun xarakterli bo'lgan emotsional muloqotni 2-3 yoshlarda predmetli-xarakatga almashtirishi uning nutqi rivojlanishiga yaxshigina turtki bo'lib xizmat qiladi. Agarki, bunday o'zgarish yuz bermasa u holda nutq rivojlanishida orqada qolish yuzaga keladi.

Bolada predmetli-o'yin faoliyati jarayonida to'plangan taassurotlar nutq rivojlanishiga dastlabki zamin bo'lib xizmat qiladi.

Bola nutqining rivojlanishi tashqi noqulay sharoitlar natijasida kechikadi va buziladi: ijobiy emotsional muhitning yo'qligi, haddan tashqari shovqin-suronli muhit.

Nutq taqlid asosida rivojlanadi. Shu sababli ayrim nutqiy kamchiliklar (talaffuzning aniq emasligi, duduqlanish, nutq tempining buzilishi va boshqalar) asosida taqlid yotadi.

Nutq kamchiliklari ko'pincha turli xil psixik travmalardan yuzaga keladi (qo'rquv, yaqin odamini yo'qotganda hayajonlanish, oiladagi uzoq davom etayotgan psixik travmalovchi vaziyat va h.k.).

Bu nutq rivojlanishini kechiktiradi, ayniqsa kuchli psixik travmalarda bolalarda psixogen nutqiy buzilishlarni keltirib chiqaradi: mutizm, nevrotik duduqlanish. Bu nutqiy buzilishlar M.Y.Xvatsev tasnifi bo'yicha shartli ravishda funksional buzilishga kiritiladi.

Shuningdek, nutqning funksional buzilishlariga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

1. Bola organizmiga zararli ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq buzilishlar.
2. Umumiy, jismoniy zaiflik, chala tug'ilish yoki to'la shakllanmagan homilalik bilan shartlangan yetishmaganlik.
3. Ichki organlarning turli kasalliklari, raxit, moddalar almashinuvining buzilishi.

Bolardagi nutq buzilishlarini baholashda keskin davrlarni hisobga olish shartdir, qaysiki bunda nutq tizimining u yoki bu tarkibiy qismini birmuncha jadal rivojlanishi qachon sodir bo'ladi, nutqiy faoliyatning, nerv mexanizmi jarohatlanishining yuqori darajadagi havfi nima bilandir bog'liq ravishda paydo bo'lishini o'rganish osonroq kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Logopediya: darslik / M.Y.Ayupova. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2022. – 560 b.
2. Брока П. О локализации речи в головном мозге // Медицинские труды. – Париж, 1861.
3. Вернике К. Афазия: симптомокомплекс. – Берлин, 1874.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 288 с.
5. Гиппократ. Избранные произведения. – Москва: Медицина, 1994. – 736 с.
6. Добогаев С.М. Нарушения речи и их причины. – Москва, 1922. – 84 с.
7. Колцова М.М. Ребенок учится говорить. – Москва: Педагогика, 1973. – 160 с.
8. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва: Просвещение, 1968. – 367 с.
9. Логопедия: учебник для студентов дефектол. фак. пед. ин-тов / под ред. Л.С.Волковой. – Москва: Просвещение, 1989. – 528 с.
10. Риторика: Учебно-методическое пособие для студентов вечерней и заочной форм обучения. / Под ред. доцента Кузьминой О.В. – СПб: СПб ГУ ИТМО, 2005. – 81 с.